

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA INTERFAOL TA‘LIM METODLARINI QO‘LLASH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH.

Xasanov Ergash Shonazarovich.

*Angren Universiteti. "Pedagogika
va psixologiya" kafedrasi o‘qituvchisi*

Bugungi kunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish sifati va samaradorligini ko‘tarish, xalqaro standartlarga moslashtirish, ilmiy savodxonligini oshirish, ta‘lim-tarbiya tizimini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich ta‘lim tizimi umumiy o‘rta ta‘limning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, uning yangi vazifalari quyidagilardan iborat:

Aniq, gumanitar va tabiiy fanlarning dastlabki bosqichi bilan o‘quvchilarni tanishtirish; Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim, savodxonlik va tarbiyalanganlik ko‘nikmalarini shakllantirish;

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta‘limning umumiy o‘rta, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan ta‘lim bosqichlariga tayyorlash;

Boshlang‘ich ta‘limga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish. Ma‘lumki, boshlang‘ich ta‘lim o‘ziga xos tizim va vazifalarga ega. Bunda, ayniqsa, o‘quvchilarni keyingi ta‘lim bosqichlariga tayyorlash muhim o‘rin tutadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga zamonaviy ta‘limning yangi talabi ortib bormoqda. Boshlang‘ich ta‘limni rivojlantirish va unda ta‘lim sifatiga erishish masalalari muhim ahamiyatga ega. Dars jarayonida yangi uslublar, o‘qitishning interfaol usullari joriy qilinayotgani esa, yurtimizda ma‘nan va jismonan barkamol avlodni voyaga etkazishga xizmat qiladi. Ta‘lim jarayonida Interfaol usullarni qo‘llash o‘quv jarayonining sifatini oshirish, o‘quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish hamda hamkorlik va o‘zaro tushunish muhitini shakllantirishdan

iborat bo'lib, ta'lim oluvchining bilish faoliyatini faollashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonini o'zaro hamkorlik asosida tashkil etishdan iborat o'qitish metodlari tizimidir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini uyg'otish va o'quv jarayonida faollikni ta'minlash uchun interfaol ta'lim usullarini qo'llash malakalariga ega bo'lishi lozim. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib ular diqqatni jamlay olmaslik, qarashlar xilma-xilligi, o'ta harakatchanlik va turli o'yinlarga intilish, bilim olishda turfa xillikni istash kabilardir. Shu o'rinda o'qituvchiga dars davomida bolalar e'tiborini ma'lum bir mavzuda ushlab turish murakkablik tug'diradi. Bu esa o'qituvchidan faol va qiziqarli dars berish uslubini talab qiladi. Interfaol ta'lim metodlarini qo'llash kompetensiyalariga ega o'qituvchilar esa o'quv jarayonini samaraliroq, qiziqarliroq va o'quvchilarning o'zlashtirishi uchun qulayroq shaklda tashkil qila oladilar. Oliy ta'limda beriladigan pedagogik bilimlar asosida talabalarda shakllantirilishi lozim bo'lgan interfaol ta'lim usullarini qo'llash kompetensiyalarini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar tarkibi quyidagilardan iborat.

1. Muammoli vaziyat metodi-tinglovchilarni muammoli vaziyatga to'qnash kelishini ta'minlash asosida ularning bilish faoliyatini faollashtirishga asoslanadigan yo'l. Metodning mohiyati aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va uning yechimi yuzasidan qaror qabul qilishdan iborat.

2. "Aqliy hujum" strategiyasi-tinglovchilarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o'z tasavvurlari, g'oyalardan ijobiy foydalanishga doir ko'nikma, malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. U yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir nechta o'ziga xos yechimlarni topish imkoniyati Strategiya mavzu doirasida ma'lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

3. "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" (BBB) metodi- tinglovchilarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni

qo'llashda tinglovchilar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg'ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.

4. **“Venn diagrammasi”**- tinglovchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

5. **“Klaster” strategiyasi** (g'uncha, to'plam, bog'lam)- puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni tinglovchilar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

6. **“Swot-tahlil” strategiyasi** - Strategiya muammoning asosiy to'rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Tinglovchilar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o'rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi. U yordamida muammoning quyidagi to'rt jihati tahlil qilinadi: **S**-Kuchli (ustun) jihatlari (hal etilayotgan muammoning afzalliklarini yoritish)

W-Kuchsiz (zaif) jihatlari (maqsadga erishish yo'lida tashkil etilayotgan harakatlarga ichki omillarining ta'sirini o'rganish)

O-Imkoniyatlarni chamalash (belgilangan vazifalarni hal etishning eng maqbul yo'llarini izlash)

T-Tahdidni o'rganish (maqsadga erishish yo'lida tashkil etilayotgan harakatlarga tashqi omillarining ta'sirini aniqlash)

7. **“Baliq skeleti” grafik organayzeri** (GO)-talabalarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo'llashda talabalarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

8. **“Blits-so‘rov” metodi-**“Blits-so‘rov” (ing. “blits” – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo‘nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Ta‘lim muassasalarida ushbu metodga muvofiq savollar, asosan, o‘qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli mashg‘ulot turi, o‘rganilayotgan mavzuning murakkabligi, talabalarning qamrab olinishiga ko‘ra belgilanadi.

Ushbu metodlarni ta‘lim jarayonida samarali qo‘llash kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tomonidan bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi va ularda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida interfaol ta‘lim usullarini qo‘llash kompetensiyalarini shakllantirish Oliy ta‘lim muassasalarida tizimli va amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan ta‘lim orqali amalga oshiriladi. Interfaol metodlarni qo‘llash kompetensiyalarini shakllantirishning asosiy yo‘llari quyidagilardan iborat:

1. Ta‘lim treninglari va seminarlarda ishtirok etish.
2. Interfaol usullar bo‘yicha ilmiy adabiyotlar va qo‘llanmalarni o‘qish.
3. Ta‘lim texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirish.
4. Hamkasblar bilan tajriba almashish va tajriba asosida yangi usullarni ishlab chiqish. Darxaqiqat, bugungi kunda zamonaviy ta‘limning asosiy maqsadlaridan biri ham har bir ta‘lim oluvchini nafaqat bilimlar bilan qurollantirish, balki qiziqishlari, moyilligi, rivojlanishi va albatta ularda ta‘lim jarayonidagi faol pozitsiyalarini shakllantirishga qaratilgan. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida interfaol ta‘lim metodlarini qo‘llash kompetensiyalarini shakllantirish, zamonaviy texnologiya va metodlar bilan tanishtirish hamda amalda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish ularning kelgusida o‘qituvchilik faoliyatini muvoffaqiyatli amalga oshirishlarida kasbiy mahoratini namoyon etuvchi eng muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. «O'zbekiston» nashriyoti. 2021 yil
2. Z. Ismoilova. "Interfaol ta'lim strategiyalari". Nashriyot: SamDU, 2023 yil.
3. Galiullina E. N. Metodicheskaya podgotovka budущix uchiteley nachal'nykh klassov k obucheniyu mladshix shkolnikov resheniyu "otkrytykh" zadach : dis. ... kand. ped. nauk : 13.00.02, 2006 198 s.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida Interfaol usullarni ta'lim jarayonida samarali qo'llash kompetensiyalarini shakllantirishga mo'ljallangan zamonaviy metodlar to'grisida fikr yuritilgan.

Rezyume: V dannoy state rassmatrivayutsya sovremennyye metody, napravlennoye na razvitiye kompetentnosti budущix uchiteley nachal'nykh klassov v effektivnom primenenii interaktivnykh metodov v obrazovatel'nom protsesse.

Resume: In this article, the focus is on modern methods aimed at developing the competence of future primary school teachers to effectively use interactive methods in the educational process